Tadqiqot uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

№20 (2019)



TOSHKENT-2019

DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599
ЎТМИШГА НАЗАР / ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ / LOOK TO THE PAST
№20 (2019) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-20

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий Университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Жаҳон Тиллари Университети

"Ўтмишга назар" журнали тахририй маслахат кенгаши
редакционный совет журнала "Взгляд в прошлое"
Editorial Board of the Look to the past

Кебадзе Мадонна
Доктор исторических наук,Телавский государственный университет (Грузия)

Бурдиашвили Майя
Доктор исторических наук, Телавский государственный университет (Грузия)

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети, Қозоғистон Республикаси

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, академик, Ўзбекистон Миллий Университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Жаҳон Тиллари Университети

Зияева Доно Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор, ЎзР ФА Тарих институти

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор, ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор, ЎзР ФА Тарих институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Раймовна
тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон Миллий Университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Ташқи ишлар вазирлиги қошидаги Дипломатия академияси, Қозоғистон Республикаси

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори, Тошкент Кимё - Технология Институтида

Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темур пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЎТМИШГА НАЗАР
ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Alinazarova Dildora Valisherovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

NAMANGANDA VAQTLI MATBUOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXIDAN

For citation: *Dildora V. Alinazarova. From the history of the formation and development of periodicals in Namangan. 2019, vol. 1, issue 20, pp. 49-54*

http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-20-08

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Namanganda vaqtli matbuot va matbaa ishlarini vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi tahlil qilingan. Ibrat fa'oliyatini - Namangan matbaachiligi asoschisi sifatida ko'rib chiqilgan. Мақолада "Matbaai Isxoqiya"ning tarixi va bugungi kundagi faoliyati va rivoji to'g'risida ma'lumotlar bor.

Kalit so'zlar: "Matbaai Isxoqiya", gazeta, bosmaxona, Ibrat, Turkiya, Orenburg, Ibrat maktabi.

Алиназарова Дилдора Валишеровна,
преподаватель кафедры "История Узбекистана"
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ИЗ ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПЕЧАТИ В НАМАНГАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статьена основе анализа широкого круга источников рассмотрено возникновение и развитие периодических изданий и типографского дела в Намангане. Рассматривается деятельность Ибрата - как основателя первой типографии в Намангане. А такжев статье имеются данные, об функционирование и развитие "Матбааи Исхокия" в прошлом и в настоящем.

Ключевые слова: "Матбааи Исхокия", газета, типография,Ибрат, Турция, Оренбург, школа Ибрата.

Dildora V. Alinazarova,
lecturer of the department of Uzbekistan History,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulughbek

FROM THE HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF PERIODICALS IN NAMANGAN

ANNOTATION

In this article, based on an analysis of a wide range of sources, discusses the emergence and development of periodicals and printing house in Namangan. The activities of Ibrat - as the founder of the first printing house in Namangan are considered. In addition, it describes the functioning and development of "Matbaai Ishokia" in the past and present.

Key words: "MatbaaiIshokia", newspaper, printing house, Ibrat, Turkey, Orenburg, Ibrat school.

So'nggi yillarda O'zbekiston hamda Turkiya o'rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochildi. Bunda Prezidentlar Shavkat Mirziyoev va Rejep Tayyip Erdo'g'onning siyosiy irodasi, qat'iyati muhim asos bo'ldi. Ya'ni ikki mamlakat rahbarlari o'rtasidagi do'stona aloqalar, muntazamlik kasb etayotgan uchrashuvlar, samimiy muloqotlar o'zaro hamkorlik rivojiga katta turtki bermoqda.

Jumladan, 2016 yil noyabr oyidaRejep Tayyip Erdo'g'onning Samarqandga tashrifi, 2017 yil may oyida Pekinda o'tkazilgan "Bir makon, bir yo'l" forumida, sentyabr oyida Ostona shahri mezbonlik qilgan Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha sammiti hamda 20 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida O'zbekiston va Turkiya rahbarlari ikki tomonlama aloqalar istiqbollari to'g'risida fikrlashdilar [1]. Бугунги кунда Туркия инвесторлари томонидан Наманган вилоятида

Mazkur maqolada ko'plab buyuk allomalarga qanot bo'lgan zamin - Namangan va uning matbaachiligi hususida so'z yuritmoqchimiz. Bu ko'hna yurtda Maxdumi A'zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy Namangoniy, Nodim Namangoniy, Muhammadsharif So'fizoda singari shoir va ma'rifatparvarlar tug'ilib ijod qilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2016 yil 2 noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda Is'hoqxon Ibrat haqida alohida to'xtalib, u kishiga atab zamonaviy bog' yaratish, yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktabi"ni tashkil qilish tashabbusini bayon etgan edi.

XIX asrda To'raqo'rg'on zaminida tug'ilib o'sgan Ibrat domla arab, fors, rus, hind, urdu, ingliz, fransuz tillarini yaxshi bilgan, dedi Prezidentimiz. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lib, Sharq va yevropa ilm-fani, madaniyati va san'ati bilan yaqindan tanishgan, yurtimizga ilg'or madaniyat va texnika yangiliklarini olib kirishga intilgan.

Is'hoqxon to'ra Junaydulla to'ra o'g'li Ibrat taraqiyparvar, munavvar fikrli, ziyoli, atoqli ma'rifatparvar shoir, jonkuyar muallim, yetuk tilshunos va tarixshunos olim, o'zbek matbaachiligining asoschilaridan biri, noshir, publitsist - ko'p qirrali faoliyat egasi edi.

O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida Ibrat milliy uyg'onish davrining komil arbobi sifatida muhim o'rin tutadi [2].

Is'hoqxon Ibrat 1862 (xijriy 1279) yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'r-g'on qishlog'ida tug'ilgan 3 . L.Ahmadalievaning "Ibrat va matbaa" maqolasida yozishicha, Ibrat 1862 yil

21 martda To'raqo'rg'on tumanidagi Sayram qishlog'ida tug'ilgan 4 . Ilk ma'lumotni onasi Huribibidan olgan.1878-86 yillar 5 Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o'qigan 6 .Ma'rifatli oilada o'sgani bois 24-25 yoshga yetganida 7 xorijiy tilda bemalol so'zlasha olish darajasiga yetgan [7].

Ibrat ajdodlari shajarasini bitgan. Bundan ma'lum bo'lishicha, uning bobolari, asli turkistonlik mashhur Xoja Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo'lib, Namangan tumani (Mullakudung)ga va To'raqo'rg'ongan kelib o'rnashib qolgan ekanlar 8 .

Ibratning o'g'illari marhum Robitxon akaning uylaridan Ibratning o'z qo'li bilan go'zal va chiroyli qilib suls xatida yozilgan avlodlar shajarasi topildi 9 . Uning to'g'risini tasdiqlash ma'nosida o'sha davrning eng nufuzli olimlari, qozilari, muftilari va davlat odamlari o'z (22 ta) muhr va tamg'alarini bosganlar [10].

Ibrat shoirlar va fozillar shahri - Xo'qandi latifdagi adabiy muhitdan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa shoirlar davrasidan bahra oldi. Bu muhit shoirning ijodiy o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi [11].

Ibrat yangi usul maktablar ochish, o'qituvchilarni tayyorlash, ayollarni ilm-ma'rifatli qilish ishlarida faol qatnashgan. 1907 yili To'raqo'rg'onda yangi usul maktabini ochgan [12].

Ibrat arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus so'zlaridan tarkib topgan "Lug'at sitta as-sina" ("olti tilli lug'at", -T., 1901.) tuzgan, bu asar o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid "Joli' ul-hutut" ("Xatlar majmui", 1912.) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berilgan [13].

Jadidchilik - millatparvarlik harakati faollaridan bo'lgan Ibrat millat istiqbolini, rivojini, ilmli, ma'rifatli kishilarning ko'payishida deb bilardi.

U ta'lim-tarbiya sohasida jadidchilik qarashlarini qattiq turib himoya qildi. Ta'lim berishda "usuli savtiya"ni qo'llashning nazariy va amaliy asos-larini ishlab chiqdi 14 .

Undagi salohiyat, iste'dod o'z zamonida yurt kezishida juda qo'l keldi. Savdogarlik va xizmat vazifalari bilan 28 mamlakatga safar qilgan. Ularning madaniyati, urf-odati, sanoati bilan qiziqdi, ulardan o'rgandi, yozdi va yurtiga, xalqiga yetkazishga urindi. 1887-92 yillarda Istanbul, Soifya, Afina, Rim, Qobul va Jidda shaharlarida bo'ldi. Hindistonning Bombay va Kalkutta shaharlarida yashagan (1892-96) 15 . Safardan qaytgach, To'raqo'rg'onga - yurtiga u ajnabiy o'lkalarda yaratilganlarning fan-texnika yangiliklaridan olib keladi. Grammafon, musiqa javoni, kinoapparat, fotoapparat keltirdi. O'z uyida kinofilmlar ko'rsatishni tashkil qiladi, suratxona ochadi [16].

Turkistonda matbaachilik ishiga asos solganlarning biri Ibratdir. U Orenburgdan toshbosma anjomlari sotib olib, ularni ko'p mashaqqatlar bilan Qo'qongacha poezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda keltiradi. Litografiya 1908 yilda "Matbai Isxoqiya" nomi bilan ishga tushiriladi 17 .Turkiston o'lkasidagi bir qishloqda matbaaning vujudga kelishi o'zbek xalqi madaniy hayotida muhim voqyea edi.Ibrat shu voqyea munosabati bilan "Tarixi chopxona" she'rini yozadi.

1909 yilda "Matbaai Isxoqiya" tipo-litografiyaga aylantirildi 18 . Birinchi she'rlar to'plami kitobini 1909 yilda "Ilmi Ibrat" nomi bilan o'z bosmaxonasida chop ettirdi [19].

1908-1909 yillarda To'raqo'rg'onda matbaaga Oxunzoda Abdurauf Shahidiy mudirlik qilgan. U fa'oliyat ko'rsatgan yili, 1908 yil litografiyada bi-rinchi marta Ibrat "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" asarini kashf qildi [20].

Qo'qonda yashab, faoliyat ko'rsatgan tatar ziyolisi A.Shagidullinov 1908 yili to'raqo'rg'onlik jadid munavvari Is'hoqxon Ibrat taklifiga ko'ra, Namanganga kelib, "Matbaai

Is'hoqiya"ni tashkillashda ishtirok etgan. Uning mehnat va ijodiy faoliyati serqirra bo'lib, 1911 yili "Falokatzoda" nomli qissa va Turkiston tarixida birinchi bor o'zbek tilida "Mahramlar" nomli 3 pardali dramasini yozib, 1912 yili "Matbaai Is'hoqiya"da nashr ettirdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ham aynan shu yilda yozilgan bo'lsa ham 1913 yili nashr etilgan edi. Birinchi o'zbek milliy dramasi masalasida bu ikki drama va uning mualliflari olimlar o'rtasida hozirgi kunga qadar ham tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda [21].

Is'hoqxon matbaa ochilgan yiliyoq uni kengaytirish, o'lkada eng ko'zga ko'ringan bosmaxonalardan biriga aylantirish uchun harakat qilgan, kerakli anjomlar tayyorlagan, hukumatdan ruxsat ham olgan [22]. Is'hoqxonning harakatlari zoe ketmadi. Halq o'rtasida kitob va turli risolalarga talab ortishi natijasida litografiya 1910 yili Namangan shahriga ko'chirildi (bosmaxona binosi hozirgi Nodim Nomongoniy ko'chasida joylashgan bo'lib XX asrning 70-yillarda buzib yuborilgan - A.D.).

1910-1913 yillarda matbaa mudiri bo'lib Xusain Makaev (Is'hoqxon Ibrat ochgan maktabda dars bergan tatar muallimi) ishladi, 1913-1917 yillarda esa matbaaga M.N. Abdusattarov rahbarlik qildi 23 . Bu davrda matbaa Turkiston miqyosida katta ahamiyat kasb etdi, "Matbaai Is'hoqiya"da katta hajmdagi asarlar ham nashr qilina boshladi 24 .

Farg'ona viloyati, hususan Namangan uezdi madaniy hayotida tatar ma'-rifatparvari Xusayn Zaynutdinovich Makaev va uning rafiqasi Fotima Makaevalar muhim o'rin tutganlar 25 . 1917 yil 15 martdan Namanganda taniqli tatar matbaachisi Xusayn Makaev tomonidan "Farg'ona sahifasi" gazetasi - o'zbek tilida nashr etilgan. Gazetaning 19 ta soni 26 chiqqan xolos [27].

1917 yilning dekabrdan Namanganda H.Makaev muharrirligida "Farg'ona nidosi" nomli yangi gazeta chiqa boshlagan. Gazetaning tez-tez chiqib turishi va eng so'nggi ma'lumotlarni mukammal yetkazib berishi bilan boshqa gazetalardan farqlanar edi 28 .

H.Makaev Namanganda bosmaxona ishlarini rivojlantirish uchun 1918 yili Qozondagi M.Idrisov bosmaxonasidan [71] pud musulmon shriftini olib kelgan.Shu yili Namangan ishchi-dehqon sho'rosi organining "Ishchilar qalqoni" nomli gazetasini chiqarishga boshchilik qilgan. 1921-1928 yillarda Namangan bosmaxonasi mudiri bo'lib ishlagan. Keyinchalik u pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan. H.Makaev 1937 yili qatag'on qurboni bo'lgan [29].

Ibrat qalbidagi "Maqsad bu ishdin erdi olamg'a ilm qasri" degan niyatini amalga oshira bordi. Matbaaga ishlangan ramziy belgi (emblema) ham shu ma'rifatparvarlik maqsadini ifoda qiladi: nur taratayotgan quyosh tasviri tushirilib, o'rtasiga "ilm" so'zi yozilgan.

Demak, Ibrat halqini ilm quyoshi nuridan bahramand qilmoqchi bo'lgan: bu ramziy belgi mazkur matbaada nashr qilingan, deyarli hamma kitoblarda bor. "Matbaai Isxoqiya"da savod chiqarishga doir, adabiyot va tarixga oid kitoblar, badiiy asarlar, she'riy to'plamlar, Ibratning o'z asarlari chop etildi [30].

"Matbaai Isxoqiya" hozirda kuchli quvvatga ega bo'lgan va Ibrat nomi bilan ataladigan yirik bir bosmaxonaga asos bo'lib qoldi. "Matbaai Isxoqiya" Namangan uezdi, umuman, Turkiston aholisi uchun katta madaniy-ma'rifiy ma'naviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bosmaxona madaniy o'choq sifatida halqqa bilim tarqatishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Namanganga tashriflari davomida Is'hoqxon to'ra Ibratni tom ma'noda bizga kashf etib berdilar. Dunyo kezib, ko'ptilli lug'at yaratish bilan birgalikda, o'zi maktab ochib, bolalarga dunyoviy ta'lim berganligining o'zi bu bir jasorat, qahramonlik, desak to'g'ri aytgan bo'lamiz.

AynanPrezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan Toraqo'rgon tumanida

Ibrat maktabiga asos solindi. 2018 yilning 3 may kuni Shavkat Mirziyoyev Ishoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatni kirib ko'rdi. Davlat rahbari maktab har tomonlama namunali bolishi, bir nechta xorijiy tillarni bilgan zamonaviy kadrlarni tarbiyalashi zarurligini takidladi.

"Til bilish bu - boylik. Til bilgan inson dunyoni biladi, hech qachon kam bo'lmaydi. Ota-bobolarimiz shunday bo'lgan, bu bizning qonimizda bor. Yoshlarimizda shunday intilishni uyg'otishimiz kerak", - dedi prezident.

Xorijiy tillar boyicha ilmiy ishlar qilish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish, maktab-internatda darslarni shu asosda olib borish kerakligi qayd etildi.

O'ylaymizki, Ibrat maktabi bitiruvchilaribuyuk tarix bunyod etgan xalqimizga munosib avlod bo'lib yetishadilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ortiqov Sh. O'zbekiston - Turkiya: Buyuk tarix bunyod etgan ikki ulug' xalq. Xalq so'zi. 27.04.2018. http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-turkiya-buyuk-tarikh-bunyod-etgan-ikki-ulug-khalq
2. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. Наманган шахри. Наманган нашриёти. 2007. -Б. 191.
3. Ибрат. Фарғона тарихи. -Тошкент: Камалак нашриёти, 1991. -Б. 268. (Ўзбекистон миллий энциклопедиясида эса 1861 йилда туғилган деб берилган. Хижрий йил ҳисобига бўлса керак - А.Д.).
4. Наманган хақиқати. Ибрат ва матбаа. Л.Аҳмадалиева. 10 январ 3-сон (18479) -Б. 6.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 4 жилд. -Б.62.
6. Ибрат. Фарғона тарихи. -Тошкент: Камалак, 1991. -Б. 268.
7. Наманган хақиқати. Ибрат ва матбаа. Л.Аҳмадалиева. 10 январ 3-сон (18479) . -Б. 6.
8. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. -Наманган: Наманган нашриёти. -Б. 191.
9. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. -Тошкент: Университет, 1996. -Б. 56-57.
10. Шажаранинг асл нусхасидан олинган маълумот.
11. Наманган адабий гулшани. А.Халилбеков. -Наманган: Наманган нашриёти, 2007. -Б. 192.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, Т., 4 жилд. 2002. - Б.62.
13. Ўша жойда.
14. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани.. -Наманган: Наманган нашриёти, 2007. -Б. 193.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т., 4 жилд. 2002. -Б.62.
16. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани.. -Наманган: Наманган нашриёти, 2007. -Б. 193.
17. Исокбоев А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти. (XIX аср охири - XX аср бошлари): Автореф.

дисс. … канд. истор. наук. -Наманган, 2008. -С. 173;
18. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани.. -Наманган: Наманган нашриёти, 2007. -Б. 193-194.
19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т., 4 жилд. 2002.
20. Мазкур татар маърифатпарвари архив ҳужжатларида Шагидуллин ёки Шагидуллинов, У.Долимов рисоласида Охунзода Шаҳидий ва Ш. Ризаев тадқиқотида Абдурауф Самадов-Шаҳидий тарзида берилган. Қаранг: ЎзР МДА И.1-фонд, 31-рўйхат, 540-иш, 181-182 варақлар; Долимов У. Исҳоқхон Ибрат… - Б. 82; Ризаев Ш. Жадид драмаси… - Б. 126, 127. Бу исм-шарифларнинг барчаси маърифатпарвар Исҳоқхон Ибрат билан ҳамкорликда фаолият кўрсатган А. Шагидуллиновга тегишлидир.
21. Ризаев Ш. Жадид драмаси …- Б. 126,127.Қаранг: Исокбоев А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти. (XIX аср охири - XX аср бошлари): Автореф. дисс. … канд. истор. наук. Наманган, 2008. С. 122;
22. Наманган ўлкани ўрганиш музейидан олинган маълумот.
23. Қаранг: Танланган асарлар, И.т. Ибрат. -Тошкент: Маънавият, 2005. -Б. 36.
24. Танланган асарлар. И.Т. Ибрат. -Тошкент: Маънавият, 2005, -Б. 38.
25. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. - Тошкент: Шарқ, 1994. - Б. 53.
26. А.Расулов ўз тадқиқотида "Фарғона саҳифаси" газетасининг 40 та сони чиққанлигини қайд этган. Қаранг: Расулов А.Н. Интернациональная помощь… - С. 205.
27. Жалолов А., Ўзганбоев Ҳ. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг… - Б. 15.
28. Фарғона нидоси // Улуғ Туркистон, 1917. 31 декабрь.
29. Расулов А.Н. Интернациональная помощь… - С.204-206.
30. Наманган адабий гулшани. А.Халилбеков. -Наманган: Наманган нашриёти, 2007. -Б. 194.